

**ARTICLE INFO**Received: 24<sup>th</sup> October 2022Accepted: 01<sup>st</sup> November 2022Online: 03<sup>rd</sup> November 2022**KEY WORDS**

Pedagogik texnologiya, bilish jarayonlari, tafakkur, o'quvchilarining o'zlariga xos xarakterli xususiyatlari, diqqat, qisqa (uzoq) muddatli xotira, egosentrik nutq, innovatsion metodlar.

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING****YOSHGA OID XUSUSIYATLARI.****Boyqobilova Zilola Normurodovna****Samarqand Davlat Chet tillar instituti****2-kurs magistranti**<https://doi.org/10.5281/zenodo.7276207>**ABSTRACT**

*Maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarining dars jarayonidagi faollikni oshirishda foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlariga xos xarakterli xususiyatlari, va innovatsion metodlar haqida fikr yuritilgan.*

XXI asr – intellektual avlod asrining kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga xos bo'lgan xarakterli jihatlari ko'p. Bugungi davr bolalari qobiliyat, zehn-zakovat, tirishqoqlik borasida ustunlik qilishadi. Ya'ni bolalar juda erta yoshdan intellektual imkoniyatlarini to'liq ishga solishga intilishadi va o'zlariga nisbatan kuchli e'tibor talab qilishadi, atrofdagi olamni tezroq anglashga urinishadi. Kichik maktab yoshidagi bugungi davr bolalari o'zlarining giperfaolligi va o'ta ta'sirchanliklari bilan o'tgan asrdagi tengdoshlaridan farq qilishadi. Bunday giperfaollik natijasida bolalar kinestetik, tez toliqadigan va diqqatni jamlab, ma'lum nuqtada uzoq saqlab tura olmaydigan bo'lib qolishgan. Bugungi davr bolalari tug'ma o'tkir zehn sohiblari bo'lib, ular axborot olishga juda o'ch. Agarda ularning axborot qabul qilishga kuchli ehtiyojlari vaqtida qondirilmasa, ular injiq va jahldor bo'lib

qolishadi. Axborotga o'chlik televizor va kompyuter qarshisida ko'p o'tirilishi natijasida shakllangan.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchida shakllantirish ko'zdautilgan ma'naviy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi. Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va



bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'lilda berilayotgan bilimlarni o'quvchilarning ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi. Pedagogik texnologiya ta'lum-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga, mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi.

Bugungi davr bolalarida uzoq muddatli xotira qisqa muddatli xotiraga nisbatan mustahkamroq bo'ladi. Bunday layoqat bolalarga kompyuter texnologiyalari asridagi yuqori axborot tezligi oqimida ortda qolib ketmasliklari va katta miqdordagi axborotni operativ qabul qilib uni tez fursatda qayta ishlashlari uchun inom etilgan. Zamonaviy metodik adabiyotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini nimani qila olmasliklariga emas, balki nima qila olishlari mumkinligiga e'tibor qaratish tavsiya etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilini o'rganishdagi asosiy ustunligi ular mazkur predmetni o'rganishda ikkilanmaydilar, ya'ni ularda jur'at yuqori bo'lib, mavjud ijtimoiy nutq vaziyatlarida obro'sizlanib qolishdan cho'chishmaydi. Ular ingliz tilini muvaffaqiyatlari o'rganish uchun yaxshi shakllangan instinktlar, til tajribalari va o'zlariga xos xarakterli xususiyatlarga ega.

Masalan, 1-2 sinf o'quvchilarini:

- til qonuniyatlarini bilmasalar-da, undan foydalana olishadigan;
- xato qilishdan cho'chimaydigan va ular ustida ishlashga tayyor;
- ona tilidagi intonatsiya turlaridan to'g'ri foydalana oladigan;
- imo-ishoralar, yuz ifodalari va qo'l harakatlarni to'g'ri talqin qilish ko'nikmasi shakllangan;

- so'z ma'nosini to'liq tushunmasalar-da, u kasb etadigan mazmunni yaxshi fahmlab oladigan;

- chegaralangan miqdordagi leksik zaxiradan kreativ (ijodiy) foydalana oladigan, tashabbusli nutq hosil qila oladigan, suhbatlashishni yaxshi ko'radigan;
- serg'ayrat, harakatchan, ishonuvchan, tasavvuri boy, ta'sirchan, maqtovsuyar, quvnoq va har bir mashg'ulotdan zavq olish usullarini topa oladigan;
- o'zgalar nutqiga taqlid qiluvchan;
- diqqatni ma'lum nuqtada uzoq muddat ushlab tura olmaydigan, qisqa muddatli xotiraga ega, egosentrik nutqi yaxshi rivojlangan; ayni paytda o'zlari bajarayotgan, bajargan yoki ko'rgan va eshitgan narsalari haqida gapira oladigan;
- til materialini yaxlit o'zlashtirishni afzal ko'radigan bo'lishadi.

1-2 sinf o'quvchilarini 3-4 sinf o'quvchilaridan farqlash mumkin. 3-4 sinf o'quvchilari 1-2 sinf o'quvchilariga nisbatan psixologik va fiziologik jihatdan yetukroq bo'lishadi. 1-2 sinf o'quvchilari ko'proq yolg'iz o'ynashni yoqtirishadi va o'z narsalarini boshqalar bilan baham ko'rishni istashmaydi. 3-4 sinf o'quvchilari esa jamoaviy o'yinlarda faol ishtirot etishni yoqtirishadi va ularda egoizim susaya boshlaydi.

Xitoy ixtirochilaridan biri Masaru Ibuka mashhur "Ushdan keyin juda kech" kitobida yozganidek: "...bolaning miyasi cheksiz miqdordagi ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin...". Yana shunga e'tibor qaratish kerakki, 6-7 yoshdagি bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushinib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun ham ingliz tilini o'rganayotgan boshlang'ich



sinf o'quvchilariga tilni o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani charchatishi va til o'rganishga bo'lgan qiziqishini susaytirib qo'yishi mumkin. Chunki boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarga chet tilini o'rgatish qiyin shu bilan birga mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi . Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi innovatsion metodlardan foydalanish mumkin :

**1. Ko'rish orqali eslab qolish .** Ma'lumki, yosh bolalar eshitgan ma'lumotlaridan ko'ra, ko'proq ko'rigan predmetlarini eslab qoladi. Shunday ekan , darsni turli xil ko'rgazmali qurollar, plakatlar orqali, ko'zga ko'rindigan va kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan narsa, buyumlarga yozish orqali yangi so'zlarni o'rgatish va o'rgangan yangi so'zlari ishtirokida gaplar tuzish . Masalan, kitob (book), stol (table), doska (blackboard) , ruchka ( pen), oyna ( window) va shu kabilarga yozish. Kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan bunday narsa-buyumlar ko'zga doimo tushib turishi va doimo qo'llanishi bois, bola bu so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadi .

**2. Qo'shiq va she'rlar orqali tushunish yoki eslab qolish qiyin bo'lgan so'zlarni musiqaga solib kuylash.** Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin .

**3. Raqobatdosh grammatika va so'z boyligini o'zlashtirishga yordam beradigan o'yinlarning aksariyatini o'z ichiga oladi .** Bunda bolalar o'qituvchi bergen turli xil topshiriqlarni bajaradi . Natijada o'quvchilar orasida raqobat

vujudga kelib, til o'rganishga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi. Zero, Xitoy mutafakkirlari aytganidek: " insonning barcha qiziqishlari raqobat orqali vujudga keladi".

**4. Aralash texnika** bu yerda biz ixtiyoriy ravishda turli xil texnikalarni birlashtira olamiz. Masalan, bunda bolalar o'yin o'ynashi, qo'shiqlar aytishi, rasm chizishi, turli xil harakatlar orqali yangi so'zlarni ko'rsatib berishi mumkin. Texnikaning afzalligi xilma-xillikda. Bunda o'quvchi faqat bitta narsa orqali cheklanib qolmaydi.

**5. Multfilmlar orqali o'rgatish.** Ma'lumki, bolalar turli xil multfilmlarni ko'rishga qiziqadi. Ingliz tilidagi multfilmlarni ko'rish jarayonida esa, multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l.

**6. Qiziqarli o'yinlar orqali o'rganish;** Ingliz tili fanini o'qitishda turli xil o'yinlar orqali o'rgatishning o'rni beqiyosdir. Dars davomida har xil o'yinlar o'ynatib turish sinfda fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi, faol bo'lмаган o'quvchilarni ham darslarda yaxshiroq qatnashishga undaydi. Quyidagi o'yinlar so'zimizga misol bo'la oladi:

- "Quvnoq topishmoqlar"(Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar.

- "Pantomima" (pantomime) . Bunda o'qituvchi o'quvchilarga biron bir so'zni aytadi va o'quvchi uni ko'rsatadi. Qolgan o'quvchilar esa so'zni topib, inglizcha nomini aytishi kerak bo'ladi .



**7. Sezgi a'zolari orqali o'rganish.** (sabzavot, mevalar, oziq-ovqatlarni tatib ko'rish, turli xil buyumlarni ushlab ko'rish, gullarni hidlab ko'rish). Ushbu yangi metodni o'rganishdan oldin bir amaliyotchi psixologning fikrlarini keltirish kerak: "Bolalarning esida biror narsaning mahkam o'rnashib qolishini xohlovchi pedagog bola sezgi organlarining mumkin qadar ko'prog'ini ko'zi, qulog'i, tovush organi, muskul sezgisi va hatto, hidlash va ta'm bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi kerak"

Darhaqiqat, sezgi a'zolar orqali til o'rganish boshqa usullarga qaraganda foydali va samarali hisoblanadi. Masalan, o'quvchi birligina olmani tatib ko'rish jarayonida uning rangi, ta'mi, hajmi, hidi qanday ekanligini biladi va uning inglizcha nomini ham aytadi. Natijada esa, o'qituvchi bolalardan ranglarning inglizcha nomini so'rab qolsa, bolalar darrov meva yegan paytini eslaydi. Demak, bunday usullardan foydalanish o'quvchining ma'lumotlarni uzoq muddatda xotirasida saqlab qolishga yordam beradi.

R.Ellis boshlang'ich sinf o'quvchilarining «I am sorry!», «Never mind!», «What's up?», «How are you?» kabi

muloqot modellari (turg'un iboralar) va «set the table», «do the room», «make a mistake» kabi so'z birikmalarning boy repertuariga ega bo'lishlari lozimligini tavsiya etadi. Bunday repertuar jonli muloqotda to'xtalib qolish xavfini bartaraf etadi va grammatik kompetensiyani shakllantirishga yordam beradi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishni majburiyat sifatida emas, aksincha, qiziqarli o'yinlar va innovatsion metodlardan foydalangan holda olib borishi, ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bir turdag'i mashg'ulot bilan ishchanlik faoliyati 10 minutdan oshmaydi. O'quvchilarda ishchanlik pasayayotganligi sezilgan dastlabki onlardayoq faoliyat turi o'zgartirilishi, ya'ni harakatli o'yinlarga o'tilishi lozim. Shunday ekan, ta'lim tizimi ham o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqish bilan o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.
2. Turdaliyeva G.N "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar"// 2020 .
3. Bekmuratova U.B . " Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" // Toshkent 2012.
4. Toliboboeva, S. J. (2020). Ingliz tilini o'qitishdagi zamonaviy ta'lim texnologiyalari.
5. Umirova, Z. (2020). IMPORTANCE OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES. International Scientific Conference of Students and Young Scientists "FARABI ALEMI".
6. Sketchley M. How to teach English to young learners. - LTC Eastbourne, 2017.



7. Akbarova SH.X. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini (lug'at bilan ishlash jarayoni) o'qitishning *lingvendidaktik asoslari*. *Ped. fan. nom. dis.* –T.: O'zDJTU, 1999